

ТОШКЕНТ КИМЁ-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ
«ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТЕХНОЛОГИЯСИ» ФАКУЛЬТЕТИ
«ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ» КАФЕДРАСИ

Йўналиш: «Гўшт-сут маҳсулотлари технологияси»

«Тасдиқлайман»
ООХ кафедраси мудир
Доц.Чориев А.Ж _____
«___» _____ 2017 й.

Талаба: **Хидирқулова М**
(фамилияси, исми, шарифи)

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ БЎЙИЧА ТОПШИРИҚ

1. Мавзу: **«Гўшт ва колбаса маҳсулотларини ишлаб чиқариш технологик линиясини ташкил қилиш.»**

2017 й «___» _____ сонли институт (факультет) буйруғи билан тасдиқланган.

2. Ҳимоя қилиш муддати _____

3. Битирув малака иши учун дастлабки маълумотлар _____

4. Тушунтириш хатининг умумий таркиби:

1. Кириш. 2. Хом ашё тавсифи. 3. Технологик схемани танлаш ва асослаш. 4. Маҳсулот ҳисоби. 5. Жихоз танлаш. 6. Асосий ускунанинг ҳисоби. 7. Техник-кимёвий назорат. 8. Тайёр маҳсулот сифатига қўйиладиган талаблар. 9. Иқтисодий қисм. 10. Технологик жараёни автоматлаштириш. 11. Атроф-муҳит муҳофазаси. 12. Меҳнат муҳофазаси. 13. Фуқаро ҳимояси. 14. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

5. График қисмининг таркиби: 1. ___та технологик схема. 2. Асосий ускунанинг чизмаси. 3. Техник иқтисодий кўрсаткичлар жадвали.

Раҳбар _____ к.ўқ Мухитдинова М.У.
ф.и.ш., лавозими, имзо

Вазифанинг берилган вақти «___» _____ 2017 й. _____

MUNDARIJA

1.	Kirish	2
2.	Xomashyo tavsifi	9
3.	Texnologik sxemani tanlash va asoslash	16
4.	Mahsulot hisobi	25
5.	Uskunalarni tanlash	28
6.	Asosiy uskunaning hisobi	30
7.	Texnik – kimyoviy nazorat	44
8.	Tayyor mahsulot sifatiga qo‘yiladigan talablar	45
9.	Iqtisodiy qism	46
10.	Texnologik jarayonni avtomatlashtirish	50
11.	Atrof-muhit muhofazasi	56
12.	Mehnat muhofazasi	62
13.	Fuqaro himoyasi	65
14.	Foydalanilgan adabiyotlarro‘yxati	69

Kirish

Mustaqillikyillarida Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligidaiqtisodiy sohada amalga oshirilayotgankeng ko'lamli islohotlar samarasida ichki bozor nisfatli oziq-ovqat mahsulotlarini bilan to'ldirish va aholining iste'mol mollariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash borasida salmoqli yutuqlarga erishilmoqda. Buni go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishda ham ko'rish mumkin.

Rasmiy ma'lumotlar bo'yicha, 2012 yilning birinchi yarmida O'zbekistonda 4,5 trln. so'mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2% ko'p.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumatlariga ko'ra, joriy yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramol soni 571,9 ming boshga oshdi (6,2 % ga), shu jumladan 139,5 ming bosh sigir, 585,8 ming bosh qo'y va echki (3,6% ga), 5628,2 ming bosh parranda (14,7% ga).

Buxoro shahridagi «Sulsherjahan» xususiy korxonasi go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Prezidentimizning yuqorida nomi qayd etilgan qarori bilan berilgan imtiyoz tufayli korxona ixtiyorida joriy yilning o'tgan davrida yagona soliq to'lovidan qariyb 100 million so'mlik mablag'lar qolmoqda. O'z navbatida soliqdan ozod qilish natijasida ozod bo'lgan mablag'lar hisobidan xususiy korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi 15 foizga oshgan. Yangi 3 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi va bu yerda qo'shimcha 5 ta ish o'rini yaratildi.

O'rni kelganda ta'kidlash joizki, Buxoro viloyatida go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan faoliyat turini amalga oshiruvchi 19 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy yilning o'tgan 6 oyi mobaynida 85,3 mln so'mlik imtiyozlardan foydalanilgan.

Darhaqiqat yurtimizda go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar uchun bunday imtiyozning joriy etilishi nafaqat go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirmalar hamda kichik korxonalarning ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining oshishiga, o'z navbatida ushbu faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi kichik biznes sohasi tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish

hajimlarining oshishiga hamda ular tomonidan tayyorlanayotgan go'sht va sut mahsulotlari turlarining ko'payishida muhim omil bo'lmoqda.

Tahlilchilarning takidlashicha, O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan go'shtning katta qismi, boshqa davlatlar kabi, yirik shoxli qoramolga to'g'ri kelmoqda - 76% dan ortiq. Davlat statistika qo'mitasining ma'luotlariga ko'ra, mamlakatda yirik shoxli qoramol soni 9,7 mln. boshdan oshdi.

2012 yil olti oyi davomida O'zbekistonda barcha toifadagi xo'jaliklarda 777,6 ming tonna, o'tgan yilning yanvar – iyun holatiga nisbatan 7% ga ko'p go'sht ishlab chiqarildi. Ushbu muhim ko'rsatkich bo'yicha yetakchilik qilayotgan uchtalikka Samarqand (umumiy ishlab chiqarish hajmida 12,6%), Toshkent (12,1%) va Qashqadaryo (11,7%) viloyatlari dehqon xo'jaliklari kiradi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra respublikada qo'y va echkilar soni 16,6 mln.dan oshganligini qayd etdi. Rasmiy ma'luotlar tahlili shuni ko'rsatadi-ki, mayda shoxli qoramolning katta qismi Qashqadaryo (21,5%), Samarqand (11,2%), Surxondaryo (10,8%) va Navoiy (10,5%) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Respublikada 43,8 mln. bosh parrandalar mavjud. Parrandalar soni bo'yicha yetakchi Toshkent viloyati agrariyasi hisoblanadi, u yerda umumiy respublika podasining 28,8% jamlangan. Samarqand viloyatining yalpi hajmi 14,3%, Andijon viloyatiniki - 10,5% ni tashkil qiladi. Rasmiy statistika ma'lumotlar tahlili ko'rsatishicha, dehqon xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollar (93,7%), qo'y va echkilar (80,9%), shuningdek parrandalarning (55,2%) ning asosiy soni jamlangan.

2006 va 2008 yillarda chorvachilik sohasida qabul qilingan hukumat qarorlarining mantig'i go'sht taklifining oshishidan iborat. Buning uchun shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida yirik shoxli qoramol yetishtirish bilan band bo'lgan shaxslar qonuniy tarzda pensiya yoshiga yetganlarida pensiya olish huquqiga ega bo'ldilar. Kam ta'minlangan oilalarga homiy va tadbirkorlar hisobiga (qariyb 100 ming bosh) bepul mol ajratish ko'rinishida ko'mak ko'rsatildi. Bundan tashqari, tijorat banklari hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi tomonidan

qishloq tadbirkorlariga faol ravishda chorvachilikni rivojlantirishga mikro kreditlar ajratildi.

Go'sht-sut mahsulotlari bozorining muvozanatlashtirilgan faoliyati davlat siyosatining muhim tarkibi hisoblanadi. O'zbekiston 2009 yildan xomashyoning kompleks qayta ishlash va yarim tayyor, yuqori darajada qayta ishlangan tovarlar va shu kabilarni o'z ichiga olgan holda mahsulotlarning barcha gammasini ishlab chiqarish borasida go'sht va sut sanoati salohiyatini oshirish yo'nalishini oldi.

Mamlakat Prezidentining 2008 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va joriy yilning 30 iyun 20-15-222/11-sonli "Go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish qoidalarini tasdiqlashtirish to'g'risidagi" qarori bunga turtki bo'ldi.

2009 yil 1 iyuldan tayyor go'sht-sut mahsulotini sanoat qayta ishlash va ishlab chiqarish bo'yida faoliyat mutloq yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirila boshlandi. Tijorat banklariga ushbu sohada band bo'lgan tadbirkorlarga kredit portfelidan 20 dan kam bo'lmagan miqdorda Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkasi bo'yicha kreditlar hamda lizing xizmatlarini taqdim etish uchun maxsus kredit liniyalarini ochish tavsiya qilingan. Asosiy e'tibor texnologik uskunani, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo va materiallarni xarid qilishga qaratilgan.

Mikrofirma va kichik korxonalarga 2014 yil 1 yanvarga qadar yagona soli to'lovi stavkasi 50% ga pasaytirilgan. Bo'shagan mablag'lar ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Bu yerga yangi laboratoriyalarni tashkil qilish va mavjudlarini jihozlash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, xomashyo bazasini rivojlantirish ham kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 22 noyabrdagi "Chorvachilikda naslchilik, zootexnika va ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tarmoq yanada rivojlantirildi. Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi "Shalola-naslli mol tayyorlash" davlat korxonasi negizida "O'z naslelita" mas'uliyati cheklangan

jamiyati tashkil etildi. Sobiq davlat korxonasining bino va inshootlari "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi ustav jamg'armasiga berilgan.

Quyidagilar yangi tuzilmaning asosiy vazifalari etib belgilangan: - sanoat asosida go'sht-sut mahsulotlari yetishtirish bo'yicha zamonaviy texnologik kompleks tashkil etish:

- yem-xashak ekinlari urug'larining elita navlarini yetishtirishni tashkil etish;

- qoramollar seleksiyasi, ularni oziqlantirish va parvarish qilish texnologiyasi, yem-xashak ekinlari o'stirish agrotexnikasi, chorva mollarining nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini takomillashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun O'zbekiston chorvachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlariga zarur shart-sharoitlar yaratish;

- mustahkam yem-xashak bazasi, yuqori mahsuldor sigirlarning "nasl yadrosi"ni tashkil etish, ulardan poda to'ldiradigan buzoqlar olish;

- ilg'or ilmiy yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etish.

O'tgan yilning oxirida mamlakatda Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi tashkil qilindi, unga respublikaning barcha viloyatlaridan go'sht-sut mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 46 ta yetakchi korxonalar kirdi. Ular qatorida bozorning "Nestle O'zbekiston" QK MCHJ (Namangan viloyati), "Bravo sut" (Samarqand viloyati), Tegen Group, Geomax plyus, Rozmetov Z.M. (Toshkent sh.) kabi bozorning muhim ishtirokchilari va boshqalar bor.

Uyushma tomonidan taqdim etilgan axborotga ko'ra, 2012 yildan 2015 yilga qadar sohada go'shtni qayta ishlash bo'yicha 47 yangi korxona tashkil qilish va mavjud 43 ta korxonani modernizasiya qilish hamda qayta tiklash mo'ljallanmoqda. Bu umumiy hisoblangan quvvatning yiliga 16,5 ming tonnaga oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, 118 ta sutni qayta ishlash korxonalarida loyilarning amalga oshirilishi ularning hisoblangan quvvatini yiliga 45,7 ming tonnaga oshiradi. Bu assortimentni kengaytirish va ishlab chiqarilayotgan tovar sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Asosiy oziq-ovqat sanoat tovarlarini ishlab chiqarish va eksport qilishning maqsadli prognoz parametrlari bilan soha korxonalari tomonidan kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarishni 2011 yildagi 25 ming tonnadan 2015 yilda 33 ming tonnagacha oshirish ko'zlangan. Go'sht konservalarini ishlab chiqarishda katta o'sish kutilmoqda- 2,2 dan 4,4 mln. shartli bankalargacha.

E'tirof etish joizki davlatimiz rahbarining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'rsida»gi PQ-1047-sonli qarori mahsulotni qayta ishlash korxonalarini barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishda dasturulamal bo'lmoqda. Mazkur qarorning 8-bandiga binoan 2016 yilning 1 yanvariga qadar bo'lgan davrda asosiy faoliyat turi bo'yicha go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirmalar hamda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining stavkasini 50 foizga kamaytirildi (ya'ni 2.5 foiz qilib belgilandi).

Xomashyotavsifi

1. Asosiy xom ashyo xarakteristikasi

Sosiska va pishirilgan kolbasalar ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo sifatida paylardan ajratilgan 1-navli mol go'shtidan (GOST 779-87) foydalaniladi.

Yirik shoxli mollarni semizligiga qarab 1 va 2 kategoriyali mol go'shti farqlanadi. Semizlikni tanada muskullar rivojlanishi va yog' qatlamlari to'planish darajasiga qarab aniqlanadi.

Mol go'shti 18,9 – 20,2% oqsil, 7,0 – 12,4% yog', 67,7 – 71,7% suvdan iborat. Uning rangi molning yoshi, jinsi va uning zotiga bog'liq. Nisbatan ochroq muskullar molning son va orqa qismida bo'ladi. Mol go'shti uchun nisbatan dag'al donadorlik va yaqqol ko'zga tashlanuvchi marmarsimonlik, ya'ni mushaklarning ko'ndalang kesim yuzasidagi yog' to'qimalarining qatlamlari bo'lishi xarakterlidir. Nisbatan to'qroq muskullar molning bo'yin va kuraksimon qismlarida joylashgan. Yog' toqimasi qattiq maydalanuvchan konsistensiyaga ega bo'lib, och sariqning turli ranglari: sarg'ish oqdan intensiv sariqqacha bo'yalgan bo'ladi. Mol yog'ining o'ziga xos yoqimli hidga ega.

Go'sht – ko'p komponentli xom ashyo bo'lib, muskul, yog', biriktiruvchi va suyak to'qimalari majmuidan tashkil topgan.

Muskul to'qimasi. Muskul to'qimasi oqsillari sarkoplazmatik, miofibrilyar va stroma oqsillariga ajraladi. Muskul to'qimasi oqsillarining ko'p qismi ularning yuqori ozuqaviy qiymatini aniqlab beruvchi aminokislota tarkibi bo'yicha yaxshi balans holatda bo'lib, texnologik xususiyatlarning ifodalanish darajasiga bog'liq bo'lgan yaxshi eruvchanlikka ega. Shuning uchun, muskul to'qimalarining oqsil moddalari xom ashyo va tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy, texnologik ko'rsatkichlari holatini oldindan aniqlab beradi (sersuvlik, mayinlik va mahsulot chiqimi).

Muskul to'qimasining tarkibiga: suv, lipidlar, uglevodlar va ekstraktiv moddalar kiradi. Hayvonlarni so'yishdan so'ng ekstraktiv moddalar, ularning parchalanish mahsulotlari yetilgan go'shtning spetsifik hid va ta'mini hosil qilishda qatnashadi.

Yog' to'qimasi.Yog' to'qimasi ham biriktiruvchi to'qimaning bir turi bo'lib, to'qimalari ahamiyatli miqdorda yog'dan (90% gacha) tashkil topgan bo'ladi. Yog' to'qimaning tarkibiga oqsillar (0.34 – 7.2%), fermentlar, vitaminlar va mineral moddalar kiradi. Yog' to'qimasining tarkibiy qismi yog' hujayralari hisoblanadi. U esa yog' va suv bilan to'ldirilgan yupqa biriktiruvchi qobiqdan tashkil topgan bo'lib, to'qimaning formasiz moddasida joylashgan. Hayvon yog'lari shilliq triglidseridlardan iborat bo'ladi. Ular qattiq, mazsimon va suyuq konsistensiyada bo'lishi mumkin. Havodagi kislorod bilan birikkanda yog'lar tezda ayniydi (taxir bo'lib qoladi) va yoqimsiz ta'mga ega bo'ladi. Yog' to'qimasi yog'da eruvchi vitaminlar (A, D, E, K) va mineral moddalar (K, Na, Mg, Fe va boshq.)ni o'zida saqlaydi.

2. Go'shtning kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati

Ozuqaviy qiymat go'shtda asosiy ozuqaviy moddalarning miqdori, organoleptik ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi va energetik qiymatni o'z ichiga oladi. Energetik qiymat ozuqa moddalarining biologik oksidlanish jarayonida ajralib chiquvchi energiya va uning organizmning fiziologik funksiyalarini ta'minlashida foydalanish ulushi bilan xarakterlanadi.

Ozuqaviy qiymat qancha yuqori bo'lsa, shuncha ko'p miqdorda organizmning ozuqaviy moddalarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Bu esa organizmning yangi to'qima va hujayralarning struktura elementlarini hosil qilish va eski buzulganlarini almashtirish uchun kerak bo'ladi.

Go'shtning tarkibiga oqsil, yog', uglevodlar, suv, mineral moddalar, vitaminlar, ekstraktiv moddalar kiradi. Ularning mavjud bo'lishi hayvonlarning turi, zoti, jinsi, yoshi va semizligiga bog'liq.

Oqsillar. Oqsillar go'shtda 14–18% (to'laqonli va to'laqonli bo'lmagan). To'laqonli bo'lmagan oqsillar – tarkibida 8 ta o'zni qoplanmaydigan aminokislotalar bo'lgan oqsillar bo'lib, ular odam organizmida ishlab chiqarilmaydi va faqatgina ozuqa yordamida kiradi (valin, triptofan, leytsin, izoleytsin, treonin, metionin, lizin, fenilalanin). Go'sht oqsillarining asosiy qismi—to'laqonli oqsillar.Unga miozin, aktin, miogen, mioalbumin, mioglobin, globulin

kiradi. Miogen, mioalbumin suvda; miozin, globulin – tuzli eritmalarda eriydi. Miogloblin – to'q-qizil tusga ega. Mushaklarda qancha miogloblin ko'p bo'lsa, shuncha uning rangi to'qroq bo'ladi. To'laqonsiz oqsillardan go'shtda kollagen va elastin mavjud. Bu biriktiruvchi osqil to'qimalari bo'lib, go'shtga qattqlikni beradi. Kollagen suv bilan qizdirilganda glyutinga o'tadi, go'sht yumshaydi, glyutin bo'sa, issiq suvda erish davomida eritmaga qovushqoqlikni beradi va u so'vutilganda qotadi va ilvira (studen, jele, xolodets)ga aylanadi. Elastin sovuq-issiq suv ta'sirida o'zgarmaydi.

Yog'lar. Go'shtda yog' 1,2 dan 49,3% gacha bo'ladi. Yog'ning miqdori hayvonlarning turi va semizligiga bog'liq. Hayvon yog'lari yuqori kaloriyaga ega, ular oshqozonda yog'da eruvchan vitaminlarni o'zlashtirilishi uchun zarur va ularning o'zida shu vitaminlar uchraydi. Yog'larning o'zlashtirilishi ularning erish haroratiga bog'liq. Mol go'shti 94% o'zlashtirilsa, cho'chqa go'shti 97% o'zlashtiriladi. Go'sht yog'larining bunday xususiyati ularning tarkibidagi to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalarining mavjudligi bilan bog'liq. Yog' go'shtning ta'mini yaxshilaydi, uning ozuqaviy qiymatini oshiradi. Xolesterin – go'shtdagi yog'simon modda bo'lib, 0,06 – 0,1% miqdorda uchraydi. Xolesterin termik ishlov berishga yetarlicha barqaror hisoblanadi.

Uglevodlar. Go'shtda uglevodlardan asosan glikogen bo'ladi. Uning miqdori 1% dan oshmaydi. Uglevodlar go'shtning yetilishi, ta'm va hidning tashkil topishi, konsistensiya va mayinlik o'zgarishida qatnashadi.

Vitaminlar. Go'shtning tarkibiga kiruvchi vitaminlar odam organizmida muhim ahamiyatga ega. Chunki ularni organizm ishlab chiqmaydi, va u o'sish va rivojlanish, unda kechadigan jarayonlarda qatnashadi.

100 g mahsulot tarkibida	B1, mg	B2, mg	E, mg	PP, mg
Sosiska "малочные"	0,19	0,15	0,4	2,3

Mineral moddalar. Go'shtda mineral moddalar 0.8 – 1.3% miqdorda bo'ladi. Makroelementlardan go'shtda natriy, kaliy, xlor, magniy, kalsiy, temir va rux mavjud. Mikroelementlardan – yod, mis, kobalt, marganets, ftor, qo'rg'oshin

va boshq. bor. Ularning odam organizmiga kelib tushishi uning normal rivojlanishi va funksiyalarini bajarishi uchun muhim hisoblanadi.

100 g mahsulot tarkibida	Natriy, mg	Kaliy, mg	Kaltsiy, mg	Temir, mg	Magniy, mg	Yod, mkg	Fosfor, mg	Oltingugurt, mg
Sosiska "Молочные"	807	220	35	1,8	20	7	159	110

Ekstraktiv moddalar. Ekstraktiv moddalar go'shtda 0.3-0.5% bo'ladi. Ular azotli va azotsiz birikmalar ko'rinishida uchraydi. Bunday moddalar suvda erib, go'shtga, sho'rvaga ta'm, hid beradi va ishtahani ochadi.

Umuman olganda ozuqaviy moddalarning hazm bo'lishi bir necha omillarga bog'liq: fizik-kimyoviy holat (oqsilning turi va strukturasi, yog'ning emulgirlanish darajasi), komponentlarning ovqatni hazm qiluvchi fermentlar bilan ta'sirlashish imkoniyati mavjudligi, asosiy ozuqaviy moddalar – yog', oqsil, suvning nisbati, o'zni qoplanmaydigan alohida aminokislotalarning balansga keltirilganligi, oshqozon shirasini ishlab chiqarilishini keltirib chiqaruvchi ta'm va hid beruvchi moddalarning mavjudligi. Tayyor mahsulotning sifati, uning ozuqaviy va biologik qiymatiga jiddiy ravishda texnologik ishlov berish jarayonida oqsil, yog', vitaminlar, organik va mineral moddalarning o'zgarishi ta'sir etadi.

Energetik qiymati

100 g mahsulot tarkibida	Oqsil, g	Yog', g	Uglevod, g	Suv, g	Mono- va disaxaridlar, g	Xolesterin, g	Kaloriyasi, kkal
Sosiska "Молочные"	11,00	23,90	1,60	61,7	0,50	52,00	266,00

3. Yordamchi xom ashyo va materiallar xarakteristikasi

Sosiska va pishirilgan kolbasa ishlab chiqarishda yordamchi xom ashyo bo'lib bug'doy uni, kraxmal, qurutilgan sigir suti, tovuq tuxumi, melanj, gidratlangan soya oqsili, tuz, shakar, qora muruch, oq qalampir, koriandr, yangi sarimsoq piyoz, muskat yong'og'i, kardamon, xushbo'y garmdori, natriy nitrit, suv. Bunday xom ashyo kolbasa mahsulotlarining ta'mni yaxshilaydi, ozuqaviy qiymatini oshiradi.

Sigir sutining quritilgani yoki yog'sizlantirilgani (GOST 4495-87) – mayda quruq sarg'ish oq tusli bir jinsli kukundir. Quruq sutda namlik miqdori 7% dan ko'p emas, yog' 2.5% dan va oqsil 25% dan kam emas.

Tuxum yoki tuxum melanj(O'zDst 626:2014)–Muzlatilgan oqsil va tuxum sarig'ining aralashmasi bo'lib, taxminan 12-13% oqsil, 10% dan kam bo'lmagan yog' va 75% gacha namlikni o'zida saqlaydi. Uning rangi och-sariq yoki och-olovrang, konsistensiyasi (eritilgandan so'ng) bir jinsli suyuq, xidi va ta'mi – tuxumga hos, yot hid va ta'msiz bo'ladi. Tuxum melanji -5 ... -6°C haroratda 8 oygacha saqlanadi. Melanjdani foydalanish mahsulotlarining biologik qiymatini oshirish va funksional-texnologik xususiyatlarini (suvni bog'lovchi va emulgirlovchi qobiliyat, yopishqoqlik va qovushqoqlik va boshq.) yaxshilashga imkon yaratadi.

Yodlangan osh tuzi(O'zDSt 1091) – Asosan qaynatib olingan yoki yanchilgani ishlatiladi, yanchish № 0, 1 va 2, navi 1 dan past emas. Tuz ozuqaviy bo'lishi kerak va tegishli yuqori yoki birinchi navli osh tuziga qo'yiladigan standart talablariga javob berishi kerak, ya'ni yuqori navlisi oq rangli va 1-navlisi xiyol sarg'ish bo'lishi, yot ta'm va hidga ega bo'lmasligi kerak. Namlik miqdori 0.5% dan ko'p emas. Saqlash sharoiti nisbiy namligi 75% dan ko'p bo'lmagan xonalarda 3 yilgacha.

Qora yoki oq muruchning maydalangan xoliga keltirilgani(GOST 29050) - To'q kulrang rangli kukun, o'ziga xos hidli va o'tkir achchiq qalampirga oid ta'mga ega. Bunga sabab unda piperin alkaloidi mavjud bo'lib, uning miqdori 4 – 7.5% gacha yetadi. Yoqimli hid unda 1.5% gacha uchuvchan efir moylari, 12% gacha namlik, umumiy kuldorlik 6% bo'lishi bilan bog'liq.

Xushbo'y xidli maydalangan qora muruch(GOST 29045) – Mirtalar oilasiga mansub bo'lgan o'simlikning yetilmagan quritilgan mevasi. Efir moylari tufayli xushbo'y garmdori kuchli yoqimli hid va o'tkir yoqimli va hiyol jizillatadigan ta'mga ega. Efir moylari orasida ko'p miqdorni evgenol (60-80%) tashkil etadi. Namligi 12% dan ko'p bo'lmasligi kerak, umumiy kuldorlik 6% dan kam bo'lishi kerak.

Muskat yong'og'i yoki Cardamon(GOST 29048) – Bu muskat daraxti mevasining po'stidan ajratilgan, quritilgan va tozalangan urug'idir. Muskat yong'og'i tarkibidagi kamfen efir moyi (80% gacha) tufayli o'zining juda kuchli hidi va jizillatadigan ta'mi bilan ajralib turadi.

Natriy nitrit(GOST 4197) – Oq yoki sarg'ish-oq kristall hisoblanadi.Go'shtning rangini keyinchalik termik ishlov berilganda rangini saqlab qolish uchun tuzlashda ishlatiladi.Korxonalarga natriy nitrit 3 kg gacha bo'lgan qadoqlarda keltiriladi.Sexda retseptura bo'yicha natriy nitritning konsentratsiyasi 2.5% dan ortiq bo'lmagan suvli eritmasini ishlatishga ruxsat beriladi.

Ichimlik suvi(O'zDst950:2011) – Kolbasa ishlab chiqarishda suv epidemik nuqtai nazardan xavfsiz bo'lishi kerak: suyultirilmagan 1 ml suvdagi jami bakteriyalar soni – 100 tadan ko'p emas; ichak tayoqchasi guruhi bakteriyalari soni 1 l suvda – 3 tadan ko'p emas. Suv ko'ngildagidek organoleptik xususiyatga ega bo'lishi kerak – rangsiz, xidsiz va tashqi ta'msiz. Suv tarkibida qurollanmagan ko'z bilan aniqlasa bo'ladigan suvda yashovchi organizmlar bo'lmasligi, uning sirtida yupqa parda bo'lmasligi, pH 6.5-8.5 bo'lishi, suvning qattiqligi 7 mg/l dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Qobiqlarkolbasaga shakl beradi, ifloslanish, mikroorganizmlar va namlik yo'qolishini oldini oladi. «Малочные»va«Столовые» sosiskasi uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan ruxsat etilgan sun'iy qobiqlar ishlatiladi.

АМИТАН, АМИФЛЕКС poliamid qobiqlarga joylangan pishirilgan kolbasalarning saqlash muddati – 20 sutkadan ko'p emas.

АМИПАК poliamid qobig'iga joylangan sosiskalar va sardelkalarning saqlash muddati – 10 sutkadan ko'p emas.


Ko'rsatkichlar	Sosiska	
	Столовые	Молочные
Namlik % ko'p emas	65	65
Batonlarningichkidiametri, mm	27-32	18-22
1 ta dona sosiska og'irligi	100	35 - 100
Tarkibida tuz miqdori % ko'p emas	2,2	2,2
100g mahsulot tarkibidagi nitrit miqdori, ko'p emas	5	5
Kraxmalmiqdori % ko'p emas	-	-
Tuzlanmagan mahsulot chiqimi %	114	109

Sosiska tarkibiga qo'shiladigan xom ashyo turiga qarab quyidagicha suv qo'shish tavsiya etiladi, 100 kg uchun:

Sosiska	Muzning maydalanayotgan qiymaga nisbati % da
Oliy navli "Столовые"	20-25
Oliy navli "Малочные"	25-30

1-navli pishirilgan kolbasalarning saqlash muddati – 20 sutkadan ko'p emas.

Texnologixemanitanlashvaasoslash



Ko'phollarda, birxilturdagimahsulotniishlabchiqarishniengsamaraliusuli, turlitexnologiksxemalardaamalgaoshirilishidir. Texnologiksxemanitanlashdabirnechta sifatko'rsatkichlarinobatgaolinishikerak-xom-ashyonisamaraliishlatilishi, chiqindilarnikamchiqishi, soddaligivashikastsizuskunalarniishlatilishi, ishlashliniyasi, mehnatunumdorligi, xodimlar soni, suv, elektr tokining iste'moldarajasivaboshqalar. Shuningdek, eng muhim nazorat, zarur parametrlarning kutterda qiyma emulsiyalash jarayonida ishlashi hamda issiqlik bilan anqayta ishlash hamdir.

Sosika ishlab chiqarish damuzlatilgango'sht (suyak va ortiqchayog'lardan ajralgan) xomashyo ishlatiladi.

Ular maxsus uskunalarda maydalanib qiyma maholigakeltiriladi. So'ng qiyma ni emulsiyalash kutterda (suv (muzholida) ziravorlar va boshqa komponentlar) qo'shilgan holda olib boriladi.

Tayyor qiyma qobiqlarga solinish gajo'natiladi keyingijarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi (qovurish, pishirish va sovutish) universal issiqlik kameralarida amalga oshiriladi.

Issiqlik bilan ishlav berilgan so'ng kimyoviy nazoratdano'tadi, agar kimyoviy nazorat yaxshinatijalarni bersa so'ng soat muzlatish kameralarida saqlab sotuv gachiqariladi.

4-6

Jarayonning texnologik tavsifi Texnologik jarayon pishirilgan kolbasa ishlab chiqarish go'sht sanoati, go'sht vago'sht mahsulotlariva sanitariya, veterinariya-sanitariya ekspertiza qoidalari (O'zDSt 29878:2015) ga binoan ishlab chiqariladi¹

Xomashyo ni qabul qilish Qayta ishlash uchun yo'naltirilgan xomashyo Vet xizmat qarori bilan bir gabo'lish kerak. Xomashyo qabul qilish datekshiriladi va agar kerak bo'lsa, namdush ostida ham. texnologik topshiriq binoan eritish - yarimtana, butun va muzlatish texnologik belgilangan tartibda saqlangan ko'rsatma ga binoan amalga oshiriladi.

Kesilib muzlatilgango'sht bo'laklaritashish paytidashikastlangan bo'lsa ishlatish gayar oqlidir. Qabul qilish harorati -1...-4°C, erishi harorati

¹O'zDSt 29878:2015 - Колбасы вареные, сосиски и сардельки. Технические условия

0±2°C gacha. Go'sht sog'lom hayvonlardan, oziq-ovqat maqsadlari uchun olingan bo'lishi kerak. Umumman hayvonga'shtibo'lmagan esk iyoki (10 yoshdan ortiq) foydalanmanilmaydi.

Sanoatdago'sht katta aravalarda tashiladi. Go'sht tarozida tortishda qavat qilib joylashtiriladi.

Tarkibiga qo'shiluvchi va sosiska ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi materilarimiz ham kimyoviy laboratoriyalarda tekshiriladi natijalar qoniqarli bo'lsa zavodga yo'l oladi.

Go'shtni maydalash. Kesilib muzlatilgan go'sht bo'laklari tashish paytida shikastlangan bo'lsa ishlatishga yaroqlidir. Qabul qilish harorati -1...-4°C, erishi harorati 0±2°C gacha. Go'sht sog'lom hayvonlardan, oziq-ovqat maqsadlari uchun olingan bo'lishi kerak. Maydalashda maxsus uskanmiz orqali muzlatilgan go'sht bo'laklari 250x500x700 mm qilib bo'laklanadi

Go'shtni qiymalash va tuzlash. Maydalangan go'sht taroziga tortilib tuzlanishga yo'l oladi. Maydalab tuzlanga go'sht chiqarishda nozik diametr 82 mm teshik panjaradan foydalaniladi.

Go'shtni 5 daqiqa davomida quruq tuz bilan aralashtiriladi toki bir xil massa hosil bo'lguncha, bunda tuz - go'shtga so'riladi. Tuzlangan go'sht 0-4°C xona haroratida maxsus idishlarda saqlanadi

Qiymani aralshtirish bunda rangi tiniqlashib tayyor bo'lganda so'ng mazza ta'm beradi.

Qiymani	(emulsiyani)
tayyorlash. Qiymalanishda	(emulsiyalanishda)

paylarparchalanadi va yog'ning konsistensiyasi mayinlashadi. Keyin natriy nitrit 1 kg qiymaga 0,00005g, shunda 1250kg qiymaga 68,75g miqdorda 2,5%li eritma shaklida qo'shiladi. Natriy nitrit go'sht oqsillari bilan reaksiyaga kirishishi, natijada azoksimioglobin va azoksigemoglobin moddalari shakliga o'tadi, bunda issiqlik bilan ishlov berilganda o'z yorqin qizil rangini yo'qotmaydi.



Sho'r tuzlash jarayoni fosfat butunlay erigandan so'ng amalga oshiriladi. Nozik maydalanish kutterda bo'ladi. Endi to'g'ri va mayin bo'ishi

qiymani tuzilishiga hamda mahsulot chiqimiga bog'liq. Kutter nafaqat aralashtirish balki muzva moshqa qo'shimcha mahsulotlarni bir-biriga birikishiga uzviy bog'liq. Afzaligi shundaki bu qurilma sosiskalarni orasida havo bo'shliqlarni yo'q qiladi.



Qiymani

to'ldirish(Шприцевание)–

quyidagilarni o'z ichiga oladi: qobiqlarni tayyorlash, qiymani joylash qobiqa, aylantirish, shtrixlash va ramalarga osish. Bu jarayonda qiyma o'z sifatini va tuzlishi saqlagan holda, maxsus 0,4-0.8 MPa bosim ostida ishlaydigan qurilmalarda amalga oshiriladi.

qobiqlarga

Jarayon



Mexanik kuch zarblarga chidamli va savdo belgisiga ega bo'lish uchun sosiskalar o'zaro aynlantiriladi va sanasi uriladi. So'ngra maydalash va qiymalash paytida havo kirib qolgan bo'lsa 4-5 ingichka ignalar bilan shtirkovka qilinadi. Buralgan sosiskalar zinhor bir-biriga yaqin qilinb ramalarga osilmaydi, bunda yopishib qolinishning oldini olinadi.



Tayyor sosiska og'irligi, g	Xom sosiska og'irligi, g
10	13

38	43
40	48
100	117

Issiqlik bilan ishlov berish (universal issiqlik kamerasi)

So'ngi jarayon: qovurish va pishirishni o'z ichiga oladi.

Qovurish (Обжарка) $65 \pm 5^{\circ}\text{C}$ da elektr tokida amalga oshiriladi. 25 daqiqa ichida ichki harorat 55°C tashkil qilguncha boradi va bunda muskul oqsillari denaturatsiya bo'ladi. Qobiq mustahkamlanadi va qizg'ish oltin ranga tuslanadi, qiyma esa och pushti rangga kiradi, natijada NaNO_2 birikib ketadi. Qovurishda qiyma o'ziga ma'lum miqdorda tutun yutadi bu esa o'z qatorida sosiskaga o'zgacha ta'm va hid beradi. Bundan tashqari qovurishda namlik bug'lanadi.

Pishirish (Варка) suv bug' yordamida

$78 \pm 80^{\circ}\text{C}$ da olib boriladi bunda 45 daqiqa davomida sosiskaning markazida harorat $70-72^{\circ}\text{C}$ tashkil etishi kerak. Bu haroratda vegetativ mikroflora hujayralarining 99%i halok bo'ladi. Sosiska mahsulotlarini qismlarida sezilarli o'zgarishlar: oqsillar muskul to'qimalarining quyۇqlashuvi, fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishi; biriktiruvchi to'qima oqsillari (kollagen) pishishi, yanada kichiklashishi; suv bilan yanada barqarorlashishi kuzatiladi.



Sovutish

(Охлаждение) issiqlik bilan ishlov berilgandan so'ng tayyor mahsulot tarkibida yetarlicha mikroorganizmlar ($+35...+38^{\circ}\text{C}$) da ham bo'ladi. Sovutish dush ostida 25-30 daqiqa davom etadi. Shuningdek batonlarning markazi $0...+15^{\circ}\text{C}$ bo'lguncha. $4-8^{\circ}\text{C}$ li sovuq suv ishlatiladi. Sovutishdan keyin $2-4^{\circ}\text{C}$ li mahsulotni xonaga o'tkaziladi



Tamg'alash – qadoqlangan mahsulotning har bir birligi (vakuum ostida yoki modifitsiratsiyalangan gazli muhit sharoitida joylangan) kolbasalar batoni,

porsiyalab, servirovkalab kesilgan bo‘laklar, guruhli joylanma, sun‘iy kolbasa qobig‘i, tabiiy qobiqdagi batonga qistirilgan etiketkada (banderol) mahsulotni tavsiflovchi tamg‘a bo‘lishi kerak.

Tamg‘alashda quydagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, mulk shakli, manzili, telefoni;
- ishlab chiqaruvchi korxonaning tovar belgisi (mavjud bo‘lsa);
- mahsulotning turi, nomi;
- mahsulotning tarkibi, E indeksli ozuqaviy qo‘shimchalar bilan birga;
- mahsulotning tarkibida tovuq yoki kurka terilari miqdorini foizlarda (%)

ko‘rsatilgan;

- netto massasi, kg (qadoqlangan mahsulot uchun);
- 100 g mahsulotning ozuqaviy va energetik qiymati;
- ishlab chiqarilgan sana (kun, oy, yil);
- yaroqlilik muddati (kun, oy, yil) va saqlash sharoitlari;
- “himoyalangan atmosferada qadoqlangan” yozuvi (modifitsiratsiyalangan

gazli muhitdan foydalanilgan hollarda);

- mazkur texnikaviy shartlarning belgilanishi;
- O‘z DSt 5.8 bo‘yicha muvofiqlik belgisi;
- shtrix-kod ro‘yxat raqamini ko‘rsatgan holda (zaruriyatga ko‘ra);
- mahsulot ichki bozorda sotilganda - "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan",

eksportga chiqarilganda "Made in Uzbekistan" yozuvlari.

Har bir mahsulot birligiga ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarilgan sanani mahsulotning ko‘rinadigan joyiga kayd etishi kerak. Ma’lumotlarni tamgalash kobigida maxsus ajratilgan joyda kursatishga, shuningdek etiketka sifatida yopishtirib kuyishga yul kuyiladi.

Ushbu mahsulotga tegishli axborot va reklama tarzidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni kiritishga ruxsat etiladi.

Transport tamg‘asi - FOCT 14192 bo‘yicha “Tez buziladigan yuk”, “Haroratni cheklanishi” manipulyasion belgilarini qayd qilgan holda.

Mahsulotni tavsiflovchi tamg‘ali yorliq transport idishiga yopishtiriladi va quyidagilar ko‘rsatiladi:

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, mulk shakli, manzili, telefoni;
- ishlab chiqaruvchi korxonaning tovar belgisi (mavjud bo'lsa);
- mahsulotning turi, nomi;
- ishlab chiqarilgan sana (kun, oy, yil);
- yaroqlilik muddati (kun, oy, yil) va saqlash sharoitlari;
- mazkur texnikaviy shartlarning belgilanishi;
- joylangan birliklar soni (qadoqlangan mahsulotlar uchun);
- mahsulot ichki bozorda sotilganda - "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan", eksportga chiqarilganda "Made in Uzbekistan" yozuvlari.

Xuddi shunday yorliq har bir idish birligiga solinadi.

Ko'p marta ishlatiladigan idishga transport tamg'asi qo'yilmasligiga yo'l qo'yiladi.

Pishirilgan kolbasa mahsulotlar sertifikatlashtirilishi, tamg'adagi ma'lumot davlat tilida va boshqa tillarda yozilishi kerak.

100 g mahsulotning ozuqaviy va energetik qiymati to'g'risidagi ma'lumot A ilovada ko'rsatilgan.

O'rab joylash (Упаковка) Pishirilgan kolbasalar tortilib, donalab va o'rab joylangan holda: vakuum ostida yoki modifitsiratsiyalangan gazli muhit sharoitlarida (butun batonlar, porsiyalab va servirovkalab kesilgan) chiqariladi. Kolbasa batoni netto massasi - 300 g dan kam emas, butun bo'lagi (porsiyalab kesilgan bo'lak) – 1000 g dan ko'p emas, qobiqsiz bo'laklar (servirovkalab kesilgan) – 300 g dan ko'p emas.



Mahsulotlarning guruhli joylanmasini polimer plenkaga: kolbasa batonlarini 3000 g dan ko'p bo'lmagan, sosiskalar, sardelkalarni (2-10 donadan) – 500 g dan ko'p bo'lmagan massada joylashga yo'l qo'yiladi.

Sosiskalarni tortilgan holda, bog'lamlarga bog'lab 12 kg dan ko'p bo'lmagan massada guruhlab joylashga yo'l qo'yiladi.

Sosiskalar (qobiqda yoki qobiqsiz), vakuum ostida yoki modifitsiratsiyalangan gazli muhitda maxsus uskunada shaffof plenka paketlarga 500 g dan ko‘p bo‘lmagan massada joylanadi.

Har bir joylash birligi netto massasining nominal massadan manfiy chetga chiqish chegarasi Γ OCT 8.579 yoki O‘zDSt 8.022 talablariga mos kelishi kerak.

Sosiskalar qadoqlanganlari, joylanadi:

- gofrirlangan karton yashiklarga - Γ OCT 13513 bo‘yicha;
- hozirda amalda qo‘llanilayotgan me‘yoriy hujjat bo‘yicha polimer ko‘p marta ishlatiladigan yashiklarga;
- alyumin yashiklarga, konteynerlarga yoki idish-uskunaga, polimer materialli muvofiqlik sertifikatini bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlatishga ruxsat berilgan boshqa turdagi idishlar va joylash materiallariga joylanadi.

Mahalliy sotuv uchun sosiskalarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari bilan kontaktda bo‘lishi uchun ruxsat berilgan sintetik materialli idishlarga joylashga yo‘l qo‘yiladi.

Idish toza, quruq, o‘zga hidsiz bo‘lishi kerak. Ko‘p marta ishlatiladigan idishni qopqog‘i bo‘lishi kerak. Qopqog‘ bo‘lmaganda mahalliy sotuv uchun chiqarilgan idishlarni Γ OCT 1341 bo‘yicha pergamentsimon qog‘oz bilan, Γ OCT 1760 pergament qog‘oz bilan, Γ OCT 8273 bo‘yicha o‘rov qog‘ozi bilan yopishga yo‘l qo‘yiladi.

Iste’molda bo‘lgan idishlarga belgilangan tartibda tasdiqlangan veterinariya-sanitariya qoidalariga muvofiq dezinfeksiyalovchi vositalar bilan ishlov berilishi kerak.

Karton yashiklar Γ OCT 18251 bo‘yicha qog‘ozli elim tasma bilan yoki Γ OCT 20477 bo‘yicha yopishqoq qavatli polimer tasma bilan yopishtirilishi kerak.

Har bir transport idish birligiga bir nomdagi va bir kunda ishlab chiqarilgan pishirilgan kolbasalar joylanadi.

Buyurtmachi bilan kelishib bir yashik, konteyner yoki idish-uskunaga ikki yoki bir necha nomdagi mahsulot joylanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Ikkinchi davr —ayrim jarayonlarning kompleks avtomatlashtirilishidir. Bunda rostlash alohida shchitga o'rnatilgan asboblari boyicha olib boriladi. yirik gabaritli asboblardan foydalanish bu shchitni bir necha metr ga cho'zilib ketishiga olib keladi va shchitni nazorat qilish qiyinlashadi, Avtomatlashtirishning bu davrida shchitdagi asboblarning hajmini kichiklashtirish zarurati paydo bo'ladi. Bu masalani hal qilish uchun kichik gabaritli ikkilamchi asboblari ishlatiladi.

Uchinchi davr (to'liq avtomatlashtirish davri) — agregat va sexlarni yalpisiga avtomatlashtirish bilan xarakterlanadi. Bu davrning xarakterli xususiyati shundaki, boshqarish yagona dispetcherlik punktiga markazlashtiriladi. Shu bilan birga, mitti ikkilamchi asboblarni ishlatish ehtiyoji paydo bo'ladi. Doimiy nazoratni talab qilmaydigan o'lchash va rostlash asboblari (yirik gabaritli) shchitdan tashqariga o'rnatiladi.

Signalizatsiya, muhofaza va nazorat qilish, sanoat jarayonlarini boshqarish hamda rostlashni bundan keyingi avtomatlashtirilishi, chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash, texnologik jarayonlarni optimal tartibda olib borish, texnologik uskunalari ishini intensivlash vazifalaridan kelib chiqadi.

Har bir texnologik jarayon (*texnologik jarayon parametrlari* deb ataluvchi) o'zgaruvchan fizikaviy va kimyoviy kattaliklar (bosim, sarf, temperatura, namlik, konsentratsiya va hokazo) bilan xarakterlanadi. Texnologik apparatura jarayonning to'g'ri oqib o'tishini ta'minlashi uchun muayyan jarayonni xarakterlovchi parametrlarni berilgan qiymatda saqlashi lozim.

Qiymatini stabillash yoki bir tekisda o'zgarishini ta'minlash zarur bo'lgan parametr ga *roslanuvchi kattalik* deb ataladi. Rostlanuvchi kattalikning qiymatini stabillash yoki ma'lum qonun bo'yicha o'zgarishini amalga oshirish uchun

mo'ljallangan asbob *avtomat rostlagich* deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning ayni paytda o'lchangan qiymati rostlanuvchi kattalikning *hozirgi qiymati* deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning texnologik reglament bo'yicha ayni vaqtda doimiy saqlanishi shart bo'lgan qiymati rostlanuvchi kattalikning *berilgan qiymati* deyiladi. Texnologik reglament rostlanuvchi kattalikning hozirgi va berilgan qiymatlarini vaqtning bir onida teng bo'lishini talab qiladi. Ammo ichki yoki tashqi sharoitlarning o'zgarishi sababli rostlanuvchi kattalikning hozirgi qiymati berilgan qiymatidan chetga chiqishi mumkin. Shu paytda hosil bo'lgan qiymatlar farqini *xato* yoki *nomoslik* deyiladi.

Xato yoki nomoslik nolga teng bo'lgan texnologik jarayon *turg'unlashgan rejim* deyiladi. Turg'unlashgan rejimda moddiy va energetik balanslar qat'iy saqlanadi.

Amalda ko'pincha xom ashyoning sarfi va tarkibi, apparatlardagi temperatura, bosim va hokazolarning o'zgarishi kuzatiladi. Texnologik jarayonning maqsadga muvofiq ravishda oqib o'tishiga teskari ta'sir ko'rsatuvchi hamda sistemalardagi moddiy va energetik balansini buzuvchi o'zgaruvchilar *g'alayonlanishlar* deb ataladi. G'alayonlanishlar ta'sirida xato paydo bo'ladigan texnologik jarayon rejimi *turg'unlashmagan rejim* deyiladi.

Har bir boshqarish sistemasida kirish va chiqish parametrlari (o'zgaruvchilari) bo'ladi. Kirish parametrlariga xom ashyoning boshlang'ich holatini xarakterlovchi o'zgaruvchi hamda vaqt o'tishi bilan o'zgaradigan uskuna parametrlari, texnologik jarayonning oqib o'tishini aniqlovchi o'zgaruvchilar kiradi. Kirish o'zgaruvchilari rostlanadigan va rostlanmaydigan bo'lishi mumkin.

Chiqish parametrlariga chiqarilgan maxsulot sifatini (kimyoviy tarkib, zichlik va boshqalar) xarakterlovchi ko'rsatkichlar, shuningdek, hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan texnika-itstisodiy (uskunalarning ishlab chiqarish unumdorligi, mahsulotning tannarxi) ko'rsatkichlar kiradi.

Sistemaning ishlashi vaqtida rostlanuvchi kattalikning hozirgi qiymati berilgan qiymatiga mos kelishi uchun sistemaga ta'sir ko'rsatish kerak (boshqariladigan o'zgaruvchi orqali). Boshqariladigan o'zgaruvchi sistema

boshqaruv ta'sirining (xom ashyoning sarfi, tarkibi va boshqalar) sonli xarakteristikasidir.

Shunday qilib, sanoatning eng muhim talablaridan biri — texnologik jarayonning turg'unlashgan rejimini saqlashdan iborat. Moddiy va energetik balansga rioya qiladigan mashina yoki apparat *rostlanuvchi ob'ekt* deyiladi.

Texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarishning vazifasi rostlagich yordamida rostlanuvchi ob'ektdagi kerak bo'lgan texnologik sharoitni avtomatik ravishda saklash, agar bu sharoit buzilsa, uni sayta tiklashdan iboratdir. Avtomatik rostlash vaqtida (rostlanuvchi ob'ektga rostlagichning ta'siri tufayli) rostlanuvchi kattalikning hozirgi qiymati berilgan qiymatiga teng yoki shunga yaqin bo'ladi.

Avtomatik sistemalar bir-birlari bilan ma'lum ketma-ketlikda bog'langan bo'lib, har biri tegishli vazifani bajaruvchi alohida elementlardan iborat. Mustaqil funksiyani bajaruvchi avtomatik sistema tarkibining biror qismi *avtomatika elementi* deyiladi. Avtomatika elementlarini ularning funksional vazifasiga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq. Avtomatik sistema elementlarining tarkibiga kiruvchi funksional bog'lanishni ifodalovchi sxema esa *funksional sxema* deb ataladi. Bundan tashqari, shu avtomatik sistemani turli dinamik xususiyatlarga ega bo'lgan va bir-birlari bilan bog'langan sodda zvenolar shaklida tasvirlash ham mumkin. Bu holda avtomatik sistemaning sxemasi zvenolarning bog'lanishini aks ettiradi va *sistemaning tuzilish sxemasi* deyiladi.

Rostlanuvchi ob'ekt va avtomatik rostlagich birligi avtomatik rostlash sistemasini (ARS) tashkil k,ilib, rostlash *konturi* nomli berk zanjirni hosil qiladi. Bu zanjir ARS – ning tuzilish sxemasiga emas, balki funksional sxemasiga tegishli.


UNIVERSAL KAMERANING PISHIRISH PARAMETRLARIGA ANIQ TALABLAR VA ISHLASH KETMA KETLIGI

Universal issiqlik kamerasi – pishirish, qovurish, dudlash, quritish va sovutish uchun foydalaniladigan qurilma. Biz esa siz bilan qurilma ichida boradigan pishirish jarayonini ko'rib chiqamiz. Bu rejimda shamol beruvchi soha atrofida forsunka orqali atrof muhit namligini ushlab turish uchun suv sepiladi. Bunda bizga harorat va namlik o'lchash uchun quyidagi tartibdagi majmualar kerak

bo'ladi:


- ✓ o'zgartkichli qarshilik termometri atrof-muhit "quruq" harorati o'lchagichi bilan;
- ✓ o'zgartkichli qarshilik termometri "namlik" ni o'lchagichi bilan. Bunda bir uchi paxta matodan yasalgan pilik-muqovasida qo'yiladi ikkinchi uchi suv to'ldirilgan vannaga qo'yiladi botirib;
- ✓ o'zgartkichli qarshilik termometri mahsulot ichidagi haroratni ushlab turish uchun mo'ljalangan termo, mahsulot yadrosida qarshilik harorat o'lchash;
- ✓ magnit puskatel;
- ✓ masofadan boshqarish pulti.

Bu jarayon quyidagicha ketadi: harorat 78°C ni tashkil qilishi kerak. Agar harorat oshib ketsa 1-2 dan signal keladi va 1-3 buni o'chiradi. Harorat tushib ketsa 1-4 va 1-5 1-3 ga signal beradi va yana 1-2 yoqiladi.



Boshlang'ich harorat 65°C pishirish jarayoni uchun zaruriy harorat ya'ni topshiriq 78°C . Pozitsion rostlagichda kuchlanish 220 V, agar harorat oshib ketsa pozitsion rostlagich kuchlanishni o'chirib ya'ni 0 V keladi kamaysa yana yoqadi

shu tariqa pishirish jarayoni davom etadi. Harorat to'liqinsimon ko'rinishda namoyon bo'ladi (2-rasm)



Atrof-muhit muhofazasi

Ekologik havfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish unglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini xisobga olmay, jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati, Rim klubining «XXI asr yuli» deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko'rsatib o'tilganidek, Er yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan maxrum bo'lish, baliqlarning xaddan tashkari ko'p ovlanishi, tuzli yomgirlar, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlami buzilishi va xokazolarning ro'y berishiga olib keldi. Mutaxassislarining baholashlaricha, 2000 yilga borib o'rmonlar egallab turgan maydon quruqlikning 1/6 qisminigina tashkil etadi, holbuki, 50-yillarda ular 1/4 qismni egallagan edi. Jaxon okeanining suvlari halokatli ravishda ifloslanib bormoqda, uning takroriy maxsuldorligi keskin

pasaymoqda. Jadal sur'atlar bilan yuz berayotgan urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning asosiy aglomeratsiyalari eng yirik ifloslantirish manbalriga olib keldi. Tarkibida oltingugurt kush oksidi bo'lgan tuzli yomg'irlar yog'ishi ko'paydi. Buning natijasida butun dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli-tuman kasalliklar soni ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda jaxon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zahiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi yildan-yilga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yonilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal sur'atlarda qisqaririshiga, cho'l-saxrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilyshiga, atmosferaning yuqorida joylashgan ozon to'sigi kamayib ketishiga, er havosining o'rtacha harorati ortib borishiga va boshqa holatlariga sabab bo'lmoqda.

Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalanishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq xolda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy xodisalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday xodisa tushuniladi. (iqlim o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi) tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammolar shakllanmokda. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Global
2. Mintaqaviy.
3. Mahalliy.

Global ekologik muammolar dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen va sof antropogen ta'sirlar natijasida yuzaga kelib umumbashariyatga tegishlidir.

Ana shunday ekologik muammolarning ba'zilari bilan tanishamiz: Atmosferaning dimiqish xodisasi. Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi SO₂ miqdori ortib borayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Natijada Yer yuzasining harorati oxirgi 100 yil ichida 0,5-1,0 gradus ortdi. Iqlimning keng ko'lamda o'zgarishi atmosferaning

sanoat chiqindilari va avtotransportlardan chiqayotgan gazlar bilan bog'liq, Yer yuzasining global isishi, ya'ni atmosferaning dimiqishi SO_2 ning havo tarkibida ortib ketishi, o'rmonlarning kesilishi, toshko'mir va benzin kabi yoqilg'ilarning yonishidan atmosferada to'planadigan SO_2 gazi tufaylidir. Ana shu zaylda ahvol o'zgarmasa XXI asrning o'rtalarida yer yuzasining harorati 1,5-4,5 gradusgacha ortishi mumkin. Natijada:

Iqlimning o'zgarishi ayniqsa, cho'llanish jarayonining kuchayishi. Yogingarchilikning o'zgarishi. Dengiz va okeanlar satxining ortishi Muzliklarning Yerishi va kamayishi hamda boshqa hodisalar kuzatiladi.

Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi azonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bo'lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiladi. Ultrabinafsha nurlari ta'sirida nurlanish odamlarda terini kuyishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta'sirida kelib chiqayotganligi aniqlandi. Hozirgi davrda freonlardan keng foydalanish tufayli hamda aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmosferada etarli miqdorda ozon to'planishiga imkon bermayapti.

Quruqlikda chuchuk suv va uning biosferadagi roli nihoyatda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz (2-2,5%). Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3-3,5 ming km^3 suv sarflanadi. Qurg'oqchil zonalarda daryolar suvidan to'liq foydalanilgan xolda ularning suvi etmay qolmoqda.

Bugungi kunda Mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqaga bo'lib kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetik, kimyo, oziq-ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi respublikada ijtimoiy ekologik holatiga

muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar.

1.Yirik xududiy sanoat majmualari joylahgan rayonlarda tabiatni muhofaza qilish muammolari. (Angren, Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va hakozi.)

2.Orol va Orolbo'yi muammolari, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish.

3.Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestitsidlari va mineral ug'itlar bilan ifloslanishi.

4.O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoida-talablari va tamoyillari asosida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinadi.

Asosiy qonunimizda davlat ekologiya siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilansa, ushbu konstitutsion qoidalarga mos ravishda qabul qilinadigan qonunlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning talablari, mexanizmi mustahkamlanadi.

Respublikamiz mustaqilikka erishgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonunlari qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy xududlar to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Davlat saniyatariya nazorati to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»;
- O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastr to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni va boshqalar.

Ushbu qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekt va subyektlari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, ushbu sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibi, muddati va talablari, ekologik qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari kabi ekologik-huquqiy qoida talablari belgilangandir.

Shuning uchun ham yuqorida ta'kidlangan ta'kidlangan O'zbekiston Respublikasining Qonunlari ekologik munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilingan bo'lib, ekologiya huquqining maxsus manbasi sifatida e'tirof etiladi.

Sanoat korxonalari atrof muhitni ifloslaydigan asosiy manbalardan biridir. Bugungi kunda barcha turlagi chiqindilarni tozalash usullari ishlab chiqilgan. Atmosfera havosini zaharli changlardan tozalash uchun gravitatsion, inersion, markazdan qochma kuch ta'siridagi, xo'llash, elektrokimyoviy usullar qo'llanilsa,

zaharli gazlardan tozalash uchun absorbsion, adsorbsion, katalitik va termik usullari qo'llaniladi.

Ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan zaharli oqova suvlarni albatta tozalab, so'ng ochiq suv havzalariga yoki kanalizatsiyaga tashlash zarur. Oqova suvlarni tozalash uchun mexanik, fizik-kimyoviy, kimyoviy, biokimyoviy va termik usullar qo'llaniladi. Bu usullarni qo'llashdan avval oqova suvning tarkibi va hossalarni aniqlash kerak va tegishli tozalash usullari orqali tozalashga beriladi.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida oqova suvlarni samarali tozalash usullarini qo'llash ham iqtisodiy, xam ekologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Bunda tozalangan suvni qayta aylanma siklga beriladi. SHunda toza suvning sarfi kamayadi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

Korxonaning (sex, bo'limning) suv bilan ta'minlanishi

Suv bilan ta'minlash manbai	Suvdan foydalanish me'yori, m ³ /soat		Aylanma harakatdagi suvning hajmi, m ³ /soat	Toza suvni tejash, %
	Loyiha bo'yicha	Aslida		
Artezian quduq	0.1	0.1	0.06	45

Korxonada asosan maishiy-xo'jalik oqova suvlari hosil bo'ladi. Bunday oqova suvlarni mexanik va biologik usullar bilan tozalanadi.

2-jadval

Oqova suvlar va ularni tozalash

Oqova suvlarning turlari	Oqova suvning hajmi, m ³ /soat		Iflosliklar tarkibi, g/l	Tozalash usullari	Tozalagich moslamalar va uskunalar	Tozalangan suvning ishlatilish yo'llari
	Tozalanayotgan	Tashlab yuborilayotgan				
Maishiy oqova suvlar	0,8	0,1	Oqsillar, yog'lar.	Mexanik va biologik usul	Birlamchi tindirgich, aerotenk, ikkilamchi tindirgich	Qishloq xo'jaligida sug'orishda ishlatiladi

Mehnatmuhofazasi

Mehnatni muxofaza qilishning asosiy talabi hamma texnikaviy masalalarni loyixa takomillashishidan boshlab uning malum qisimlarini ishlab chiqishni hal qilish, xavsizligini taminlashdir.

Texnika xavfsizligini sanoat sanitariyasi va geginasi yong`inga qarshi kurash texnikasini ishlab chiqishdan texnologik jarayonlar mehnatni muhofaza qilishni asosiy vazifasiga kiradi. Shuning uchun ham sanoat korxonalarining muhim talabi faqat sifatli maxsulot ishlab chiqarish bo`lmasdan balki, ishlab chiqarish sharoitlarini va kasb kasalliklarini oldini olishdan iboratdir. Kimyo sanoatida organik va noorganik moddalardan foydalanishdan ularning portlash va yonish xususiyatlariga aloxida etibor berish bo`lajak mutaxassislar va bakalavirlarning oldiga quygan vazifalaridan biridir.

Texnologik jarayon yuqori xarorat va bosimda boshqarishni xisobga olish, asbob uskunalarni zichligini va chegara termetinlariga e`tibor berish nazarda tutiladi. qizib ketishi mumkin bo`lgan yuzalarni past xarorat darajasida bo`lishi uchun masalan ushbu loyixada aloxida xonalarga joylashtirilishi, shovqin yutuvchi materiallar bilan to`silishi tebranish beruvchi asbob uskunalarni ostida amortizatorlar qo`yilishi xisobga olinadi.

Shu vaqtda ta`mirlash statik va dinamik sinovlardan o`tkazish laboratoriya usullari bilan shovqin darajasini o`lchab turib uning miqdorini darajasini 80 db dan oshib ketmasligini nazarda tutish kerak.

Bu korxonada jarayon uzliksiz jarayon xisoblanib shikastlanishdan kasallanishdan saqlaydi. Chunki jarayon uzliksiz bo`lganida texnologiya avtomatlashtirilgan bo`ladi.

Texnologik jarayonni xavfsizlikni, ta`minlash ish unumdorligini oshirish, ishchilar sog`ligini saqlash, jaroxat va baxtsiz xodisalarni oldini olish ish joylarini to`g`ri yoritish katta ahamiyatga ega. Shu tufayli ushbu ishlab chiqarish korxonasida quyidagi yoritish turlari xisobga olingan: tabiiy suniy aralashma va avariya uchun mo`ljallangan yoritilganlikdir. Tabiiy yoritilganlikdir koefitsienti SNIP 2.01.05.98 asosida IX razryad uchun 1.5-2.0% qolgan yuza va ish ketish uchun gardirab bilan jixozlash ularni o`lchash 175x65x65 sm bo`lib soni bir smena uchun ya`ni bo`linish xisobga olingan.

Elektrdan shikastlanishni oldini olish va ogoxlantirishda yerga ulanuvchi ximoya ishlarini tashkillashtirish katta ahamiyatga ega. Bunday ximoya turi elektr o`tkazadigan quvurlar qismlarini metal sim bilan amalga oshirish ko`zda tutiladi.

Ushbu ishlab chiqarish korxonasi elektr tokiga nisbatan yuqori xavfli bino xonalar tarkibiga kiradi. Shunga asosan elektr uskunalarni usti qoplangan maxsus suniy yoritgichlar sifatida yonish va portlashga bardosh beradigan yoritgichlar, projektrlari ishlatilgan.

Yopiq ishlab chiqish xonalariga normal materialik qo'shish sharoit yaratish uchun va ortiqcha issiqlik, namlik va zaxarli moddalardan ximoya qilish maqsadida ushbu tabiiy gazni ajratish sexida operator xavo almashinish karralisi 8 ga teng bo'lgan suniy xavo almashtirgichlar o'rnatilgan. SNIP.2.04.05.47 talabi bo'yicha qilingan.

Sanitariya va gigiyena talablariga muvofiq ushbu korxona ishchi va xizmatchilar uchun sanitar kiyinish xonalar, erkaklar va ayollar uchun alohida qurilish va unga xar bir ishchi uchun 2-bo'linmadan tashqari maxsus qoplatmalar bilan quvurlarni ustini qoplash eng kamida yuzdan xaroratni 38-40% olib kelish ishlab chiqarishda xizmat qiladigan ishchi xizmatchilarni tasidifiy kuyishlardagi jaroxat va baxtsiz xodisalardan saqlaydi. SNIP.2.08.12.48 talablari etiborga olingan.

Korxona SNIP 2.04.02.86 asosan zarur bo'lgan suv havzalari bilan ta'minlangan.

Shu tufayli ushbu ishlab chiqarish korxonasida qizigan yuzalarni issiqlikdan ximoyalash chorasi qo'llanilgan.

Shu bilan barcha korxonada ishlaydiganlar uchun shaxsiy ximoyalash vositalarini: himoya kaskasi, ko'zoynak, qo'lqoplar, gaz niqoblar, respiratorlar va boshqa vositalardan foydalaniladi .

Qurilish materiallarining o'tga chidamliligini darajasi I-II dan iboratdir. Shuning uchun ushbu loyixalash maksimal avtomatlashtirish ko'zda tutiladi. Har qanday ishlab chiqarish korxonasining asosini ishlab chiqilgan amalda sinab ko'rsatilgan texnologik jarayonni normal sharoitini ushlab turadigan normal parametrlar bilan aniqlanadi.

Texnologik jarayonni avtomatlashtirish, himoyalash, to'siqlash, rejimiga solish va signalizatsiyalashdir. Ma'lumki texnologik parametrlar idishdagi

maxsulot satxi, xarorati, bosimi, konsentratsiyasi va aralashma nisbatining o'zgarishini ishlab chiqarishda yong'in va avariyalarga olib kelishi mumkin.

Asbob uskunalarni ular o'rtasidagi masofa reaktorlarini joylashtirish va ularni boshqarish qulay bo'lish, tasodifiy vaziyatlarda odamlarni evakuatsiya qilish sharoitlarini xisobga olish lozim.

Ishlab chiqarish korxonalarida asbob uskunalardan: masalan, reaktorlar, nasoslar, elektr matorlari, separatorlar va sovutgichlarni ishlashi texnologik jarayonni yuqori bosimda ishlash natijasida yuqori darajada shovqin va tebranish xosil bo'lishi mumkin. Buni natijasida ishchi va xizmatchilar bedavo kasb kasalliklariga duchor bo'lishi mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xar bir bo'lim, sexlarda ishlaydigan ishchilarni shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Korxonada yong'n xafsizligini taminlash uchun xarbilashgan o't uchirish bo'limi bilan taminlangan.

Bulardan tashqari birlamchi o't o'chirgich vositalari: ko'pikli (OQP-10:OP-5) karbonat angidridli (0.4-5.98) quruq parashokli (OBC-1, OPC-100) yong'indan xabar beruvchi moslama tufayli ishga tushuvchi avtomat serenalar qurilmalari o'rnatilgan. SNIP02.04.02.85 talabi bo'yicha qilingan.

Shu bilan barcha ishlab chiqarish xonasi portlovchi yong'inga qarshi gidrontlar va ichki tomondan qo'shimcha suv jo'mraklari o'rnatilgan.

Ishlab chiqarish korxonasida yong'in va portlash hafi yuqori bo'lganligi uchun har bir sexda zomonaviy ut uchirish moslamalari urnatilgan va ko'ngilli ut uchirish hizmati tashkil etilgan.

Ishlab chiqarish korxonasi hududi havfli bo'lganligi sababli barcha qurilmalar maxsus qoplamalar bilan qoplangan , elektr qismlari esa maxsus qutilarga joylashtirilgan,elektr simlari esa trubalar ichidan va yer tagidan o'tkazilgan.

Xar bir korxona o'z oldidagi, xodimlari oldidagi bo'ladigan inson uchun xavfi bor bo'lgan xodisalarni oldini olishi shart.

SNIP2.01.03.96 ga asosan, yashin qaytargich qurilmalari o'rnatilgan.

Fuqaro himoyasi

Fuqaro muhofazasi umumdavlat mudofaa ishlari tizimi bo'lib aholini va xalq xo'jaligi obektlarini tinchlik va xarbiy davrlarda favqulotda vaziyatdan himoyalash obektining barqarorligini oshirish favqulotda vaziyatlarning oldini olish va yuz berib bo'lganda kichik ko'rib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Prezidentimiz o'z asarlarida „siyosatimizning asil mohiyati aholi xavfsizligini taminlash ularni turli ofatlar va FV lardan himoyalashdir”deb takidlaganlar. Shunday ekan FV larni oldindan aniqlash aholini ushbu xaflardan ogohlantirish.FV lar yuz berganda tezroq harakat qilish insonlarning qurbon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik hamda iqtisodiy zararni kamaytirish vazifalari dolzarb masala bo'lib kelmoqda. 1994-yil 4-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FV vazirligining tashkil etilishi to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, shu o'tgan davr mobaynida bir necha terroristik guruhlarini ommaviy noroziliklari va qurolli to'qnashuvlar sodir bo'ldi. 2000 yil 15- dekabirda „Terrorizimga qarshi kurash” to'g'risidagi 31 ta moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Masalan: 2-modda asosiy tushunchalar tayanchi terroristik faoliyatlarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs.

Terroristik guruhlar - oldindan til biriktirib terrorizim harakatiga tayyorgarlik ko'rsatgan va sodir etgan kishilar guruhi ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati yoki mansabdor shaxslarni noqonuniy xarakat qilishga majburlash.

4 – moddada. Terrorizimga qarshi kurashni asosiy pirinsiplari.

- qonunchilik
- shaxs huquq erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustivorligi
- terrorizimga qarshi kurashni oshkor va nooshkara usullarining uyg'unligi.

22 – moddada. Terrorchilik harakati natijasida yetkazilgan moddiy zarar davlat tomonidan qonun hujjatlari asosida qoplanadi.

24 – moddada. Jabrlangan shastlar normal hayotga qaytarish huquqiy yordam berish ruxiy, tiibbiy va nisbiy reabilitatsiya huquqiga egadir.

28 – moddada. Terrorchilik faoliyatida ishtirok etishdan o`z extiyori bilan qaytsa bu haqida tegishli davlat organlariga habar bersa og`ir oqibatlarga olib keluvchi terroristik xurujlarning oldini olishga yordam bersa qonun xujjatlariga muvofiq javobgarlikdan ozod etiladi.

Korxonada fuqora muhofazasini taminlash maqsadida modiy texnika bazasidan kelib chiqib quyidagi bo`lim va xizmatlar tashkil etilgan.

- umumiy aloqa xizmati (telefon);
- jamoa tinchligini taminlash (quriqlash xizmati);
- yong`nga qarshi kurash bo`limi;
- tibbiy bo`lim;
- avaryaviy texnik xizmat;
- moddiy texnik taminot bo`limi;
- trasport xizmati;
- markaziy tahlili laboratoriyasi.

Korxonada KTZM (kuchli tasir etuvchi zaxarli moddalar) ishlatiladi. Bu moddalar inson organizimiga kuchli tasir ko`rsatadi. Shu sababli bu moddalar mahsus omborlarda saqlanadi. Bu yerda ishlovchi xodimlar maxsus ximoya uskunalari bilan taminlangan.

FV larda aholining hayotiy faoliyati xafsizligini taminlashda bir qator qoidalarni ko`rib chiqish muhim rol o`ynaydi. Xususan aholini FV larga o`qitish, FV larni vaqtida xabar berish, kimyoviy va bakterial razvetka ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish hamda doimiy va laboratoriya nazoratlarini tashkil qilish, yong`nga qarshi, epedimiyaga qarshi va sanitariya-giginik tadbirlarni o`tkazish, qutqaruv ishlarini o`rgatish bilan bajariladigan ishlar uchun moddiy boyliklar zaxiralarini to`plash va boshqalar.

FV larda fuqorolarni muxofaza qilishning asosiy usullari aholini evakuatsiya qilish, himoya inshootlariga berkitish, shaxsiy himoya hamda tibbiy profilaktik vositalarni qo`llashdan iborat.

Korxonada asosan umumiy foydalanadigan ximoya vositalariga namdan ximoyalaydigan, suv o`tkazmaydigan, issiqa va sovuqqa chidamli ximoya

vosiytalaridan foydalaniladi. Bularga; ximoya kaskalari, protivagazlar, maxsus charimdan tikilgan oyoq kiyimlar, maxsus pijaklar va hokozalar.

Korxonada ishlab chiqarish jarayoni moboynda zaxarli moddalar tarqalganligi sababli gazniqoblar va respiratorlardan zavod hududida foydalanish shart.

FV lar vaqtida obektdagi ish jarayonini mustaxkamlanishini oshirish bo'yicha quyidagi chora tadbirlar amalga oshiriladi. Korxona binosini qo'rishda yonmaydigan tebranishga chidamli va boshqa mustaxkam qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Bundan tashqari bino qurilishida temir- beton simli yani sestmik belbog'lardan foydalanilgan.

FV lar vaqtida binoning xoxlagan qavatidan tashqariga xavfsiz joyga chiqadigan yo'llar, eshik, deraza, darvoza, yulaklar yani chiqish evakuatsiya yo'llari yaratib qo'yilgan. Yong'in vaqtida qutqaruv ishlarini bajarish uchun harakatlanadigan qo'lda ishlatiladigan o't o'chirgichlar, chelak, suvli baklar, qumli yashik, yonmaydigan matiriallar tayyorlab qo'yilgan.

Sanitariya ko'rsatmalari yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarishni kafolatlash maqsadida korxonaga kiritilayotgan xom-ashyo malum talablarga javob berishi shart.

Keltirilgan xom-ashyolar omborlarda takchalarda, yomkistlarda saqlanadi. Harorat 30 C dan yuqori bo'lmagan, namlik 30% ko'p bolmasligi shart.

Ichimlik suvi uchun mo'ljallangan trubalar uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi shart.

Foydalanilganadabiyotlarro'yxati

1. Ориповвабошқалар.
Қишлоқхўжаликмаҳсулотларинисақлашвақайтаишлаштехнологияси. - Т.: Мехнат,
1991.

2. Фатхуллаев А., Мусаев Х.Н. Гўштбиокимёси. Т.: Молия-иқтисодчи нашриёти, 2010. – б. 152.
3. Чориев А.Ж., Асатуллаева Ф.Х. Мева ва сабзавотлар микробиологияси. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 167б.
4. Hakimova SH.I. Oziq-ovqat mikrobiologiyasi. Т. 2005. – 222b
5. Забашта А. Г., Подвойская И.А., Молочников М.В. Справочник по производству фаршированных и вареных колбас, сарделек, сосисок и мясных хлебов. М., 2007. – 702 с.
6. O'zDSt 29878:2015 ПИШИРИЛГАН КОЛБАСАЛАР, СОСИСКАЛАР ВА САРДЕЛКАЛАР. Техникавий шартлар
7. Рогов И. А., Жаринов А.И. Технология и оборудование мясоконсервного производства. - М., «Колос», 2006, 270 с.

<http://agros.obninsk.ru/termo-electro/>

http://www.tehtron.ru/our_products/termodymokamery_uk-3a/24-termodymokamery-uk-3a.html

<http://meat-profi.ru/meat/i/10>

<https://www.schalleraustria.com/927?autoLan=false>

<http://oziq-ovqat.uz/>

<http://www.colaxm.ru/production/meat/delicacy/1003.php>

<http://e-kommunal.uz/ru/cc.php>

<http://lex.uz/>

<http://www.laska.at/>

www.minzdrav.uz

<http://karlschnell.de/>

SAGBAN TM

Юридическое название: ГОЛД ТЕК ООО

Юридическое название: ШАРШАРА ООО

ТО'НТАНИҲОЗ-ОТА ФЕРМЕРСКОЕ ХОЗЯЙСТВО
Юридическое название: ТУХТАНИЁЗ-ОТА ФЕРМЕРСКОЕ ХОЗЯЙСТВО

КОЛБАСНЫЙ МИР ЧП
Юридическое название: МОТОРИНА Н.В. ЧП

"МАСТЕР ДЕЛИКАТЕСОВ" ООО
МЯСНАЯ НАХОДКА МАГАЗИН № 1

"КУШЧИНОРГУШТ" ЧП

"БАХТ" ЧП
Корaxonadanchqadigan 1kgsosiska=10 795 so'm

"GLOBAL TEHNO FOOD" ООО

"КАТТАКУРГАН MEAT PRODUCTS" ЧП

"ОСИҲО" ТМ
(Производитель)"ХАСКОВО"

"ТАННО"
(Производитель)КОЛБАСЫ ТАННО
"DENKO MIX" ООО

"DORUL-IHLOS" ООО

"ELITA CHORVANASL" ООО